

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI Ph.D.03/28.08.2024.Qx.181.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 633.854.54;631.52

AMANOV FARRUX BAXTIYOROVICH

**LALMIKOR MAYDONLAR UCHUN MOY MIQDORI VA
HOSILDORLIGI YUQORI BO'LGAN ZIG'IRNING YANGI NAVINI
YARATISH**

06.01.05- «Seleksiya va urug'chilik» ixtisosligi bo'yicha dissertatsiya
himoyasisiz seleksiya yutug'i (ixtiro patenti) asosida falsafa doktori
(PhD) ilmiy darajasini olish uchun

T A Q D I M O T I

Ilmiy rahbar, q.x.f.f.d., k.i.x.



Sh.X.Oripov

TERMIZ-2025

KIRISH (taqdimot (ixtiro patenti)ning annotatsiyasi).

Taqdimot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida qishloq xo'jaligi ekinlarining seleksiyasida olib boriladigan tanlash ishlari samaradorligining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayonda qo'llaniladigan tanlash usullari mahalliy tuproq-iqlim, ob-havo hamda har bir mamlakatning texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashgan bo'lishi kerak. Yer yuzida odamlar iste'moli uchun ekologik toza moy sifatida kungaboqar, kunjut, zig'ir, soya, zaytun va maxsar moylari juda ko'p qadrlanadi. "FAO xalqaro tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha moyli zig'ir etishtirish 2023 yilda 2,8 mln tonnani tashkil etib, asosiy qismi Qozog'iston, Kanada, Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlarga to'g'ri keladi".¹ Yetishtiriladigan umumiy maydoni esa, 2,7 mln gektardan ortiq, asosan Rossiya 1,4 mln, Qozog'iston 726 ming, Kanadada 246 ming gektarni tashkil etadi. Shuningdek, dunyo miqiyosida aholi jon boshiga o'simlik moyiga bo'lgan yilik talab Rossiya Federatsiyasida kishi jon boshiga yiliga 13,9 kg, Germaniyada 16,2 kg, Qozog'istonda 20,3 kg va Amerika qo'shma shtatlarida 31 kg ni tashkil etadi. Dunyoda moyli zig'ir seleksiyasi bo'yicha yetakchilik qilayotgan mamlakatlarda ertapishar, serhosil navlar yaratilgan va ishlab chiqarishga keng joriy etilgan. Biroq ob-havodagi keskin o'zgarishlar, kasallik va zararkunandalar keltirayotgan zararning oshib borishi serhosil, moy miqdori yuqori bo'lgan zig'irning yangi navini yaratish moyli zig'ir seleksiyasining dolzarb masalalaridan biridir.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida moyli zig'irni suvli va lalmikor yerlarda yetishtirish uchun ko'plab nav va duragaylari yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Jumladan Xitoy, Hindiston, AQSH, Qozog'iston, Turkiya va Rossiya kabi davlatlarning nufuzli ilmiy tadqiqot muassasalarida seleksionerlar tomonidan diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan. Respublikamizda ham moyli ekinlar seleksiyasini rivojlantirishni ilmiy asosda keng yo'lga qo'yish orqali respublika aholisini ekologik sof o'simlik moy mahsulotlari

¹ <https://www.fao.org/faostat/en>

bilan ta'minlash, iste'molchilar talabini mamlakatda yetishtirilayotgan mahsulotlar hisobiga to'la qondirish, shu bilan birga agrar tarmoqning eksport salohiyatini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda moyli ekinlarni etishtirish yerlardan unumli foydalanishga imkon yaratish bilan birga, asosiy tarmoq bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, ya'ni aholining yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish muammosini echishga keng yo'l ochadi. Ma'lumot uchun 2024 yilda Respublika bo'yicha maxsar, zig'ir, kunjut, soya va kungaboqar ekinlari umumiy 226901 gektar maydonga ekilib, undan olingan yalpi hosil miqdori 332363 tonnani tashkil etdi. Shundan, moyli zig'ir ekinini 12805 gektar maydonga ekilib 10527 tonna hosil yig'ishtirildi. Ammo, aholini sifatli moy mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda asosan, chet mamlakatlardan keltirilayotgan yog'-moy mahsulotlari hisobiga qoplanmoqda. Shuning uchun, Respublikamiz iqlim sharoitiga mos, don sifati, hosildorligi va moy miqdori yuqori bo'lgan moyli zig'ir navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda Respublikaning lalmikor maydonlariga zig'ir, maxsar, kunjut va undov kabi moyli ekin turlari ekilib ularning ahamiyati kundan kun oshib bormoqda. Ammo, ushbu ekin turlarining urug'larining har yili qayta-qayta ekilishi natijasida ularning navdorligi buzilib, hosildorlik sezilarli darajada pasayib bormoqda.

Moyli ekinlar navlari urug'chilik tizimini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli rayonlashgan navlarning navdorlik xususiyatlarini saqlash maqsadida, yuqori avlodli superelita va elita urug'larini etishtiradigan xo'jaliklarni tanlash va yuqori sifatli, navdor urug'lar bilan ta'minlash, shuningdek ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 29 avgustdagi «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

strategiyasi to‘g‘risida»², 2019 yil 16 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi “Urug‘chilik to‘g‘risida”gi Qonunlari³, 2019 yil 17 iyundagi PF-5742 son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁴, 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853 son “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”⁵gi Farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tarmoqdagi mavjud tizimli muammolarga barham berish, bozorni sifatli, havfsiz, arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish va butun mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur qarorlar faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning xorijiy va respublikamiz ilmiy-tadqiqot institutlarida o‘rganilganlik darajasi. Moyli zig‘ir navlarining tashqi muhit omillariga, kasallik va zararkunandalarga chidamli tarkibida moy chiqimi yuqori bo‘lgan yangi navlarini yaratish, ularni parvarishlash texnologiyalari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda F.M.Galkin, M.D.Safanov, J.Smitha., A.V.Polyakov., V.V.Jivetin., R.M.Gaynulin., S.L.Gorlov., V.G.Vasinin., D.G.Jamalova kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Respublikamizda esa Y.G.Mamot., A.I.Kovalev., L.Chirkov, V.Ivanenko, Y.A.Aripov, M.B.Begbutayev, S.E.Egamberdiev, B.O.Omonturdiyev, M.E.Amanova, Sh.X.Oripov va L.R.Allanazarova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijasida moyli zig‘irning Baxmal-2, Bahorikor, Lalmikor va Moydor-23 navlari yaratilib Davlat reestriga kiritilgan.

Taqdimot mavzusining, taqdimot bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqotlar Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining Moyli ekinlar genetikasi, seleksiyasi va

² <https://lex.uz/docs/-3107036>

³ <https://lex.uz/docs/-4202718>

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-4378526>

⁵ <https://lex.uz/docs/-4567334>

urug'chiligi laboratoriyasining 2018-2020-yillar kalendar ish rejasiga asosan bajarilgan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning maqsadi. Respublika lalmikor maydonlari uchun moyli zig'irning tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, tarkibida moy miqdori yuqori bo'lgan serhosil, yangi navini yaratish.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning vazifalari: Moyli zig'irning kelib chiqishi turli ekologik-geografik mintaqalarga mansub bo'lgan yangi nav namunalarining biologik xususiyatlari hamda qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish;

-o'rganilgan nav namunalari orasidan hosildorligi va moy miqdori yuqori bo'lgan namunalarni tanlash;

-tanlab olingan namunalar asosida moy chiqimi yuqori bo'lgan, qimmatli belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan navini yaratish;

-yangi yaratilgan raqobatbardosh, hosildor va moy chiqimi yuqori bo'lgan yangi navning urug'chilik tizimini shakllantirish va ishlab chiqarishga joriy etish.

Tadqiqot (ixtiro patenti) ob'ekti sifatida O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutidan keltirilgan va Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida mavjud bo'lgan xorijiy nav namunalari jumladan, moyli zig'irning 134 ta nav namunalari, raqobat nav sinash maydonidagi 10 ta nav va tizmalari hamda andoza sifatida "Bahorikor" navi qo'llanilgan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning predmeti. Moyli zig'ir nav va namunalarining mahsuldorlik belgilari, hosildorligi hamda tarkibida moy chiqish miqdori yuqori bo'lgan nav namunalarni baholash hisoblanadi.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning usullari. Tadqiqot davomida olingan natijalar Методика Государственного сортоиспытания Масличных культур Выпуск третий г. Москва (1983), Методика проведения испытаний на отличимость, однородность и стабильность лен масличный, лен-долгунес Линум уситатуссимум Л. Москва (1997).

Urug'lik tarkibidagi moy miqdorini aniqlashda quyidagi GOST-9672-87, GOST-1198-2014 lardan foydalanildi.

Barcha uslub va agrotexnik tadbirlar DDEITI G'allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan (1994) ishlab chiqilgan tavsiya va uslublar asosida, fenologik kuzatuvlar, dala va laboratoriya sharoitida turli ko'rsatkichlar bo'yicha baholashlar, tahlillar qishloq xo'jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasi (1997) uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Matematik tahlillari B.A.Доспехов (1985) da keltirilgan uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: Respublikamizning lalmikor mintaqalar sharoitida moyli zig'irning chetdan keltirilgan kolleksiya nav namunalarining kompleks belgi va xususiyatlari o'rganilgan;

-o'rganilgan nav namunalar orasida o'suv davri davomiyligi bo'yicha 2 ta 2018/8 (86) va 1988/03 (86) nav namuna andoza "Bahorikor" naviga nisbatan 5 kun ertapishar ekanligi aniqlandi;

-moyli zig'ir quyidagi 2018/8 va 1988/03 nav namunalari orasida hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha andoza sifatida olingan "Bahorikor" navida hosildorlik o'rtacha 7,9 s/ga ni tashkil qilib andoza navga nisbatan o'rganilgan 2018/08 va 1988/03 nav namunalarida hosildorlik o'rtacha 9,3-8,5 s/gani tashkil qildi. Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra 2018/08 va 1988/03 nav namunalari andoza "Bahorikor" naviga nisbatan 0,6-1,4 s/ga qo'shimcha hosil olindi.

-tarkibida moy miqdori bo'yicha o'rganilganda 2018/08 va 1988/03 nav namunalar andoza "Bahorikor" naviga nisbatan 0,9-1,6% yuqori bo'ldi.

-olingan natijalarga asoslanib ertapishar, yuqori hosilli va tarkibida moy miqdori yuqori bo'lgan moyli zig'irning "Lalmikor" navi yaratildi hamda Intelektual mulk agentligi tomonidan seleksiya yutug'iga 12.12.2024 y NAP519 raqamli patent olindi.

Tadqiqot (ixtiro patentining)ning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Tadqiqotlar davomida O'simliklar genetik resurslar ilmiy-tadqiqot institutidan keltirilgan moyli zig'irning №2018/8 nav namunasi seleksiya jarayoni uchun, ertapishar, kasalliklarga chidamli, hosildorligi va tarkibida moy chiqish miqdori yuqori bo'lganligi uchun ajratib olingan.

Yangi yaratilgan moyli zig'irning "Lalmikor" navi Respublikamizning Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani va Jizzax viloyati G'allaorol tumani fermer xo'jaliklarida jami 31 gektar maydonga joriy etilgan.

Bundan tashqari, 2025-yil O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markazi moyli zig'irning "Lalmikor" navini 2021-yildan sinovga qabul qilinganligi hamda "Lalmikor" navi 2023-yildan Qashqadaryo viloyat bo'yicha istiqbolli navlar ro'yxatiga kiritilgan.

Intelktual mulk agentligi tomonidan moyli zig'irning "Lalmikor" naviga 12.12.2024 y. NAP 519 raqamli patent olingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining ishonchliligi. Dala tajribalari qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy Markazi hamda Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilgan, ilmiy kengashda ma'ruza qilingan. O'tkazilgan dala va laboratoriya tajribalari har yili Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan uslubiy va aprobatsiya komissiyasi xulosalariga ko'ra ijobiy baholanganligi va birlamchi hujjatlarning mavjudligi, nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga mos kelishi, ilmiy tadqiqot ishlarining statistik tahlil qilinganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, natijalarni amaliyotga joriy etilganligi, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati moyli zig'irning "Lalmikor" naviga xos bo'lgan o'simliklarining morfobiologik va qimmatli-xo'jalik belgilari ko'rsatkichlari bo'yicha baholanganligi hamda tavsiflanganligi, tadqiqot natijalarini kompleks o'rganish asosida moyli zig'ir seleksiyasining turli yo'nalishlari uchun qimmatli-xo'jalik belgi va xususiyatlariga ega, ertapishar, kasalliklarga chidamli,

moy miqdori va hosildorligi yuqori bo'lgan shaklining ajratib olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tezpisharligi 86-90 kun, hosildorligi 8,0-10 s/ga, o'simlikning bo'yi 50-55 sm, bir poyada shoxlar soni 3-5 ta, bir poyadagi ko'saklar soni 21-33 ta, ko'sakdagi urug' soni 6-8 ta, 1000 dona urug' vazni 4-5 gni tashkil etuvchi moyli zig'irning "Lalmikor" navi yaratilganligi hamda Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining lalmikor maydonlarida ekilib o'rtacha 9,3 s/ga hosil olinganligi, rayonlashgan navlarga nisbatan hosildorligi 1,4-1,5 s/ga va moy miqdori 1-2% yuqoriligi tasdiqlangan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining joriy qilinishi. Lalmikor maydonlarda ekish uchun tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, serhosil va tarkibida moy chiqish miqdori yuqori bo'lgan yangi moyli zig'irning "Lalmikor" navini yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida;

Moyli zig'irning noqulay omillariga chidamli, serhosil va tarkibida moy chiqish miqdori yuqori bo'lgan yangi "Lalmikor" navi yaratilgan. Zig'irning "Lalmikor" navi 2021-2023 yillarda, raqobat nav sinovidan muvaffaqiyatli sinovdan o'tib, ishlab chiqarishga joriy qilindi (Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasi 2025-yil 8-fevraldagi T 6/01-09-109 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu navni ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida yuqori hosil etishtirish hisobiga har gektar maydondan 1,4-1,5 s/ga qo'shimcha hosil olingan.

Yangi yaratilgan "Lalmikor" navi Jizzax viloyatining G'allaorol tumani Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba maydonida 7 gektarga, "Mavlono" fermer xo'jaligida 5 gektarga jami G'allaorol tumanining lalmikor maydonlarida 12 gektarga joriy etilgan. Natijada o'rtacha 9,3-9,5 s/ga hosil olinib, andoza "Bahorikor" naviga nisbatan 1,4-1,5 s/ga yuqori hosil olingan. (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 19-maydagi 05/05-03-197- sonli ma'lumotnomasi).

Moyli zig'irning "Lalmikor" navi Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida fermer xo'jaliklarida jami 19 gektar maydonga joriy qilinib, o'rtacha 9,0-9,1 s/ga hosil olinib, andoza navga nisbatan 1,6 s/ga yuqori ko'rsatkichga

erishgan. (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 19-maydagi 05/05-03-197-sonli ma'lumotnomasi).

Tajribalar natijasida "Lalmikor" navining 1200 kg elita va super elita urug'liklari saqlash uchun Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy omboriga topshirilgan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institute aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan maxalliy ilmiy jurnalda 2 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola hamda 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy amaliy-amaliy anjumanlar toplamlarida tezislar nashr qilingan.

I-BOB. TADQIQOTNING ASOSIY MAZMUNI

Dunyo qishloq xo'jaligida zig'ir eng muhim moyli ekinlardan biri bo'lib, u oziq-ovqat sanoati, chorvachilik sohasi va boshqa sanoat maqsadlarida foydalaniladigan ekin xisoblanadi. "FAO xalqaro tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha moyli zig'ir etishtirish 2023 yilda 3,5 mln tonnani tashkil etib, shundan 29 foizi Qozog'iston, 22 foizi Kanada, 17 foizi Rossiya, 11 foizi Xitoy va boshqa davlatlarga to'g'ri keladi". Yer yuzida aholi sonining o'sishi, suv resurslarining yildan-yilga qisqarib borayotganligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining oshishi tez sur'atlarda oshib borayotgan talabni qondira olmayapti.

Respublika aholisini ekologik toza yog'-moy mahsulotlari bilan ta'minlashda lalmikor yerlarda etishtiriladigan moyli ekinlar muhim ahamiyatga ega. Keyingi davrlarda lalmi yerlarda kungaboqar, maxsar, zig'ir va kunjut kabi moyli ekinlarning maydoni kengayib bormoqda. Ularni yetishtirish, seleksiya va urug'chilik ilmiy ishlanmalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Ularning moyi ekologik toza moy sifatida keng istemol qilinadi. Ulardan toza ekologik moy ajratib olingandan so'ng to'poni va kunjarasi chorva molari uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida o'tgan asrning 40-50 yillarida boshlangan seleksiya ishlari bevosita davom ettirilib, moyli ekinlarining yangi nav namunalarini to'plash, ularning orasidan noqulay tashqi muhit sharoitlariga, biotik omillarga (kasallik va zararkunandalar) chidamli nav namunalarini tanlab olish, shular asosida seleksiya ishlarining uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda mahsuldorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tajriba maydonining tuproq-iqlim sharoiti. Tajribalar G'allaorol tumani Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba maydonlarida olib borildi.

G'allaorol tumani ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra, Jizzax viloyatining g'arbiy qismida 40°01'17 shimoliy kenglik va 67°35'51 sharqiy uzunlikda

joylashgan. G'allaorol tumanining tog' oralig'i botiqligi shimoldan Nurota, shimoliy-sharq tomondan Qo'ytosh, janub tomondan Turkiston, janubiy-sharq tomondan Molguzar va g'arb tomondan G'ubdin tog' tizmalari o'rab turadi.

G'allaorol tumanining asosiy haydaladigan lalmikor maydonlarida lalmi tipik bo'z tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, dengiz sathidan 200-300 m dan 1200-1500 m gacha balandlikda joylashgan. Dengiz sathidan ko'tarilgan sari nam bilan ta'minlanish yaxshilanib boradi, havo harorati pasayadi.

Dala tajribalari Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba uchastkasida olib borildi. Markaziy tajriba uchastkasi nam bilan yarim ta'minlangan tekislik, qir-adirlik mintaqasida joylashgan. Tajriba dalasi tuproqlari o'rtacha qumoqli, suv va havo eroziyasiga o'rtacha chalingan bo'lib, ularning haydov qatlamida 0-20 sm 0,55-0,88% gumus, 0,08-0,12% yalpi azot, 0,12-0,15% umumiy fosfor hamda 1,20-1,160% yalpi kaliy mavjud. Yer osti sizot suvlari 10 m dan pastda joylashgan bo'lib, tuproq hosil bo'lishi jarayonlariga deyarli ta'sir etmaydi.

Lalmikor mintaqalar 5 ta yirik geografik okrugga bo'linadi: O'rta Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona. Har bir geografik okrugda relefga bog'liq ravishda vertikal tuproq-iqlim mintaqalari bo'yicha quyidagicha joylashgan: tekislik, tekislik-qir-adirlik, tog' oldi va tog'li mintaq. Ushbu mintaqalar bir-biridan dengiz sathidan ko'tarilgan sayin nisbiy namlikning yuqori bo'lishi, havo haroratining pasayishi, sovuqsiz kunlar sonining qisqarib borishi, tuproq va o'simlik qoplaminig o'zgarishi, tuproq unumdorligining oshib borishi, o'simliklar qoplaminig ko'proq bo'lishi bilan farq qiladi. Nam bilan yarim taminlangan qir-adirlik mintaqada yillik yog'ingarchilik 280-350 mm, o'rtacha yillik havo harorati 11,6-13,0 °S, qor qoplamli kunlar 28-37, may-iyun oylaridagi yog'in miqdori 35-49 mm ni tashkil qilib, relefi tekislik va to'liqinsimon qir-adirliklardan iborat. Tuprog'i tipik bo'z tuproqlardan iborat. Bu mintaqada hosildorlikni chegaralovchi omillardan yog'ingarchilikning etishmasligidan tashqari tuproq unumdorligining pastligi, tuprog'i toshli, quyi qatlamlarida gipsning

ko'pligi. Tekislik mintaqadan farqli o'laroq bu mintaqada g'alladan tashqari, dukkakli don va em-xashak, moyli hamda poliz ekinlari etishtirish mumkin.

Moyli zig'ir yetishtirish uchun eng mos keluvchi bu yengil va qumloq tuproqlardir. Og'ir va yengil granulometrik tarkibli tuproqlarda ozuqa moddalari kam bo'lib moyli zig'ir uchun mos emas. Tuproq tarkibi kam miqdorda kislotali va neytralga yaqin bo'lishi kerak.

Tadqiqot hududi Jizzax viloyatining yog'ingarchilik bilan yarim ta'minlangan tekislik, qir-adirlik lalmikor tipik bo'z tuproqlar mintaqasida joylashgan bo'lib, iqlimning keskin kontinentalligi, yillik yog'in miqdorining kamligi va tuproqlari oziqa elementlari bilan ham yarim ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqot davomida olingan natijalar Методика Государственного сортоиспытания Масличных культур Выпуск третий. Москва (1983), Методика проведения испытаний на отличимость, однородность и стабильность лен масличный, лен-долгунес Линум уситатуссимум Л. Москва (1997).

Urug'lik tarkibidagi moy miqdorini aniqlash quyidagi standartlardan foydalanildi, GOST-9672-87, GOST-1198-2014.

Barcha uslub va agrotexnik tadbirlar DDEITI G'allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan (1994) ishlab chiqilgan tavsiya va uslublari asosida, fenologik kuzatuvlar, dala va laboratoriya sharoitida turli ko'rsatkichlar bo'yicha baholashlar, tahlillar qishloq xo'jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasi (1997) uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Matematik tahlillari Б.А.Доспехов (1985) da keltirilgan uslublardan foydalanilgan.


Tadqiqotlar natijasida lalmikor maydonlar uchun kasalliklarga va tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, serhosil, moy miqdori yuqori bo'lgan, andoza navga nisbatan 10-15% ko'p hosil beradigan moyli zig'irning yangi "Lalmikor" navi yaratildi.

II-BOB. LALMIKOR MAYDONLARDA MOYLI ZIG‘IR KOLLEKSIYA NAV NAMUNALARINI O‘RGANISH BO‘YICHA OLINGAN ILMIY-TADQIQOT NATIJALARI.

Kolleksiya nav namunalarining o‘sov davri davomiyligi. Nav va namunalar uchun vegetatsiya davrining davomiyligi juda xilma-xil bo‘lib, katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim biologik xususiyatdir. O‘shish davrining ma’lum davomiyligi bilan navlarni tanlash mintaqaning tabiiy sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.


Moyli zig‘ir o‘sov davrida quyidagi rivojlanish fazalarni o‘taydi: unib chiqish, archalash, g‘unchalash, gullash va pishish.

Lalmikor maydonlar sharoitida moyli zig‘irning 134 ta nav namunalaridan foydalanib tajribalar olib borildi.



2.1-Rasm. Tadqiqot natijalarida o‘rganilgan nav namunalarining geografik kelib chiqishi

Ekish ishlari mart oyining birinchi o‘n kunligida amalga oshirilgan bo‘lib, to‘liq pishish o‘rtacha 14-26 iyungacha o‘zgarib turdi. Namunalarning o‘rtacha pishib etilish davri 86-98 kunni tashkil qildi. O‘sov davrining ba’zi fazalarining o‘tishi kun hisobida katta farq ko‘zga tashlanmadi. Biroq o‘sov davri oxiriga tomon fazalarning kechikishi ortib borishidek umumiy qonuniyat saqlanadi.



2.2-Rasm. Unib chiqish-to'liq pishishgacha bo'lgan davr, kun

Moyli zig'irning unib chiqish va gullash fazalari hosil uchun muhim ahamiyatga ega, asosiy ildiz tizimi shakllanadi, o'q ildizi qanchalik yaxshi rivojlansa gullash fazasida o'simlikning namlikka bo'lgan talabini qondira oladi. Umuman qishloq xo'jaligini dehqonchilik sohasida biologik jihatdan ertapishar bo'lgan moyli zig'ir navlari may oyining oxiri va iyun oyining boshlarida bo'ladigan kuchli issiqlik ta'siriga uchramaslik imkonini beradi.

Unib chiqish-g'unchalash davri qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan ertapishar namunalarni ajratib olishda muhim davr hisoblanadi. Kechki muddatda g'unchalash fazasiga o'tgan namunalarda gullash davrida bo'ladigan issiqlik gullarni to'liq changlanmaslik oqibatida ko'sakdagi urug'lar sonining kamayishiga olib kelsa, don to'lish davrida bo'ladigan issiqlik urug'larning puch bo'lishiga va sifat darajasining pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun, qurg'oqchilikka chidamli navlarni yaratishda unib chiqish-g'unchalash davri qisqa bo'lgan namunalarni tanlash lozim.

Kolleksiya ko'chatzorida o'rganilgan nav va namunalarning unib chiqish-g'unchalash davri 32-38 kungacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. Nav va namunalarning o'suv davri 86-97 kunni o'z ichiga olganligi aniqlandi. O'rganilgan moyli zig'irning nav namunalarining fenologik kuzatuvlar asosida o'suv davri o'rganilganda, unib chiqish davri 26-30 mart, archalash fazasiga

o'tishi 9-14 aprel, g'unchalash fazasiga o'tishi 29 aprel–5 may, o'simlikning gullash davri 12-18 may kunlariga, to'liq pishish davri 14-26 iyun kunlariga to'g'ri keldi (2.1-jadval).

2.1-jadval.

Kolleksiya nav namunalarning o'suv davri davomiyligi, G'allaorol 2015 yil.

№	Nav namunalar nomi	Kelib chiqishi joyi	Unib chiqish, sana	Archalash, sana	G' unchalash, sana	Gullash, sana	To' liq pishish, kun
1	Bahorikor/ an.	Uz	28/03	11/04	30/04	15/05	91
2	Nc-1112	Chex	28/03	12/04	29/04	14/05	92
3	Nc-32251	Ros	29/03	13/04	05/05	17/05	89
4	Nc-35684	Afg'	27/03	12/04	03/05	16/05	90
5	Nc-20/18	Uz	26/03	09/04	29/04	13/05	86
6	Nc-16332	Can	26/03	10/04	02/05	12/05	87
7	Nc-9874	Ros	27/03	10/04	30/04	14/05	88
8	Nc-118	Afg'	30/03	14/04	05/05	17/05	90
9	Nc-21392	Qoz	29/03	14/04	03/05	16/05	91
10	Nc-20145	Uk	27/03	11/04	30/04	15/05	90
11	Nc-31144	Aqsh	26/03	10/04	29/04	13/05	90
12	Nc-8963	Ang	30/03	12/04	01/05	14/05	89
13	1988/03	Misr	28/03	11/04	03/05	18/05	91

Tadqiqotlardan olingan natijalarga ko'ra moyli zig'ir kolleksiya nav namunalarining unib chiqish-to'liq pishish davri andoza "Bahorikor" navida 91 kunni, unga nisbatan o'rganilgan Nc-32251 (89 kun), Nc-20/18 (86 kun), Nc-16332 (87 kun), Nc-9874 (88) va Nc-8963 (89 kun) kolleksiya nav namunalari 2-5 kun gacha ertaroq pishib yetildi.

Moyli zig'ir kolleksiya nav va namunalarning maxsuldorlik ko'rsatkichlari. O'rganilgan nav namunalarining o'simlik bo'yi 45,4–52,0 sm ni tashkil etganligi qayd qilindi.

Lalmikor maydonlar sharoitida kolleksiya nav va namunalarning 1000 dona urug‘ vaznining yuqori bo‘lishi hosildorlikni yuqori bo‘lishida muhim hususiyat xisoblanadi. Bitta o‘simlikdagi hosil shoxlari tahlil qilinganda 3,3-4,3 donagacha, bitta o‘simlikdagi ko‘saklar soni 22-31 donani, bitta ko‘sakdagi don soni 7-8 donani, 1000 dona urug‘ vazni 4,3-5,1 g/gacha, urug‘ hosildorligi 7,8-9,0 sentnergacha bo‘lgani aniqlandi.

2.2-jadval

Kolleksiya nav namunalarning maxsuldorlik ko‘rsatkichlari, G‘allaorol 2015 yil.

No	Nav namunalar nomi	O‘ simlik bo‘ yi, sm	Shoxlar soni, dona	Ko‘ saklar soni, sm	Ko‘ sakdagi don soni, dona	1000 dona urug‘ vazni, g	Hosildorlik, s/ga
1	Bahorikor/ an.	49,9	3,3	25	7	4,5	7,9
2	Nc-1112	48,6	3,9	25	7	4,5	8,3
3	Nc-32251	47,6	3,8	22	8	4,7	8,5
4	Nc-35684	48,1	4,0	26	8	4,8	8,0
5	Nc-20/18	50,3	4,3	31	8	4,8	9,0
6	Nc-16332	45,4	3,7	27	8	4,7	8,1
7	Nc-9874	50,1	3,9	29	8	4,9	8,9
8	Nc-118	51,3	3,5	24	7	4,6	7,8
9	Nc-21392	49,0	3,8	26	7	4,3	8,7
10	Nc-20145	48,6	3,3	26	7	4,7	8,5
11	Nc-31144	49,8	3,8	28	8	4,7	8,3
12	Nc-8963	47,7	3,6	25	7	4,6	8,1
13	1988/03	52,0	4,1	30	8	5,1	8,6
Ko‘saklar soni va 1000 dona urug‘ vazni o‘rtasida korrelyativ bog‘liqlik						r=0,58	
Ko‘saklar soni va hosildorlik o‘rtasida korrelyativ bog‘liqlik							r=0,59

O‘rganilgan kolleksiya nav namunalari ichida andoza “Bahorikor” naviga nisbatan Nc20/18, 1988/03 va Nc-9874 kolleksiya nav namunalari o‘simlik bo‘yi bo‘yicha 0,2-0,4-2,1 sm, bitta o‘simlikdagi hosil shohlari 0,6-0,8-1,0 dona, bitta o‘simlikdagi ko‘saklar soni 4-5-6 dona, ko‘sakdagi don soni 1 dona,

1000 dona urug‘ vazni 0,3-0,4-0,6 g/ga, hosildorlik esa 0,7-1,0-1,1 senterga yuqori bo‘ldi (2.2-jadval).

Shuningdek ko‘saklar soni, 1000 dona urug‘ vazni va hosildorlik o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanish tahlil qilindi. Bunga ko‘ra ko‘saklar soni va 1000 dona urug‘ vazni o‘rtasida ($r=0,58$), ko‘saklar soni va hosildorlik o‘rtasida ($r=0,59$) ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik borligi aniqlandi.

2.3-jadval.

Lalmikor navining yaratilish bosqichlari.

Seleksiya yutug‘iga patent olingan moyli zig‘irning “Lalmikor” navining kelib chiqishi
Boshlang‘ich manbalar ko‘chatzori 2015 yil
↓
Seleksiya ko‘chatzori 2016 yil
↓
Nazorat ko‘chatzori 2017 yil
↓
Dastlabki nav sinash ko‘chatzori 2018 yil
↓
Raqobatli nav sinash 2019-2021 yil
↓
Davlat nav sinash 2021 – 2023 yil
↓
Davlat reestriga kiritildi 2023 yil

Moyli zig‘irning “Lalmikor” navi 2021-2023 yillarda Respublikamizning turli hududlaridagi faoliyat yuritayotgan bir biridan farqlanuvchi tuproq-iqlim sharoitlariga ega bo‘lgan Davlat nav sinash komissiyasining shahobchalarida konkurs nav sinov maydonlarida sinovdan o‘tdi. Jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha, moyli zig‘irning “Lalmikor” navi Respublikamizning turli hududlaridagi mavjud tuproq-iqlim sharoitlarida ekilib, sinab ko‘rilganida hosildorlik ko‘rsatkichlari G‘allaorolda 9,5 s/ga, Qamashida 9,1 s/gani bo‘lgani aniqlangan (2.4-jadval).

2.4-jadval

**Lalmikor navini turli hududlarda o'rganilganda hosildorlik
ko'rsatkichlari, 2021-2023 yy.**

№	Xududlar nomi	Hosildorlik ko'rsatkichlari s/ga.
1	G'allaorol	9,5 s/ga
2	Qamashi	9,1 s/ga

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki yangi yaratilgan "Lalmikor" navi o'suv davri bo'yicha andoza "Bahorikor" navidan uch yillik natijalarga ko'ra o'rtacha 3 kunga, o'simlik bo'yi 0,4 sm, bitta o'simlikdagi hosil shoxlar soni 1 donaga, bitta o'simlikdagi ko'saklar don soni 6 donaga, bitta ko'sakdagi don soni 1 donaga, 1000 dona urug' vazni 0,3 g, va hosildorlik bo'yicha 1,2 s/ga yuqori ekanligi tajribalarda aniqlandi.

2.5-jadval

**Lalmikor navining qimmatli xo'jalik va biologik xususiyatlari,
G'allaorol 2019-2021 yy.**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019	2020	2021	O'rtacha
Lalmikor						
1	O'suv davri	kun	88	85	85	86
2	O'simlik bo'yi	sm	49	54	50	51
3	Shoxlar soni	dona	4	5	4	4,3
4	Ko'saklar soni	dona	31	35	33	33
5	Ko'sakdagi don soni	dona	7	8	8	8
6	1000 ta don vazni	g	4,5	5,0	4,6	4,7
7	Hosildorlik	s/ga	9,3	9,2	9,5	9,3
Bahorikor						
1	O'suv davri	kun	90	93	90	91
2	O'simlik bo'yi	sm	46	50	47	48
3	Shoxlar soni	dona	3	3	4	3,3
4	Ko'saklar soni	dona	25	30	26	27
5	Ko'sakdagi don soni	dona	7	6	7	7
6	1000 ta don vazni	g	4,3	4,5	4,3	4,3
7	Hosildorlik	s/ga	8,0	7,8	8,1	7,9

Yangi yaratilgan "Lalmikor" navning moydorlik ko'rsatkichlari.
Respublikada moy mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun moyli zig'ir ekin maydonlari 2029 yilgacha 20 ming gektarga yoki 160% foizga kengayishi, yalpi

ishlab chiqariladigan hosil miqdori 18,0 ming tonnaga yoki ikki barobarga ortishi va ishlab chiqariladigan o‘simlik moyi 6,84 ming tonnani tashkil etishi, noan’anaviy moyli ekin turlaridan moy ishlab chiqarilishi 25,2 ming tonna yoki 2,1 barobarga oshirishga erishilishi yangi yaratilgan navlar hisobiga hom-ashyo miqdorining ko‘payishi va yog‘-moy korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini qo‘shimcha 21-24 foizga oshishiga olib keladi. Bu ko‘rsatkichni yildan yilga oshirib borilishi, shubhasiz, yog‘-moy korxonalarida ishlab chiqarish unumdorligi oshishi va yog‘-moy mahsulotlariga bo‘lgan tanqislikni kamayishiga olib keladi.

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti sifat laboratoriyasining 2020-2024 yy sinov dalolatnomasi ma’lumotlariga ko‘ra andoza “Bahorikor” navi tarkibida moy miqdori o‘rtacha 36,1% ni tashkil etgan bo‘lsa, yangi yaratilgan “Lalmikor” navi tarkibidagi moy miqdori 37,9 % ni tashkil etib, 1,8% qo‘shimcha moy olishga erishildi (2.6-jadval).

2.6-jadval

Moyli zig‘ir “Lalmikor” navining moy chiqish miqdori
(2020-2024 yy.)

№	Nav va namunalar nomi	Urug‘ tarkibidagi moy miqdori, %						Andoza navga nisbatan moy chiqishi farqi, %	
		2020	2021	2022	2023	2024	O‘rtacha	Bahorikor	Lalmikor
Moyli zig‘ir									
1	Baxorikor	36,6	37,0	34,2	33,5	37,3	36,1	-	1,76
2	Lalmikor	38,0	39,7	36,8	35,3	39,4	37,9		

Zig‘ir (GOST – 110582-76. O‘ZDSt - 2438)

Izoh: JDITI laboratoriyasi tahlil bayonnomasi ilova qilinadi.

Keyingi yillarda tadqiqotlar davom ettirilib, mazkur yillarda ham urug‘chilik ishlarining to‘g‘ri tashkil etilganligi va mutloq sof urug‘ ajratib olinganligi sababli bu navning urug‘i tarkibidagi moy miqdori yuqoriligi bilan farqlandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yildan-yilga urug‘ tarkibidagi moy chiqish miqdori o‘rtacha 1,7% ga oshganligi kuzatildi.

Raqobat nav sinash maydonida o'rganilgan moyli zig'ir nav namunalarining o'suv davri davomiyligi. Moyli zig'ir navlarining lalmikor maydonlarda raqobatli nav sinash ko'chatzorida ekib o'rganishdan asosiy maqsad respublikamizning lalmikor maydonlariga moslashgan, qurg'oqchilikka chidamli, hosildor, moy miqdori yuqori bo'lgan navlarni ajratib olish va ishlab chiqarishga joriy etish va aholini o'simlik moyiga bo'lgan talabni qondirishdan iborat.

Respublikamizning lalmikor maydonlarida moyli zig'irning eng yaxshi navlarini yaratishda urug' tarkibi moy va uning miqdor ko'rsatkichlari, tashqi muhit va agrotexnik tadbirlar zig'irning sifatiga kuchli ta'sir etadi. Tadqiqotlar Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba maydonida o'tkazildi.

Moyli zig'ir nav va namunalarini ekish ishlari mart oyining birinchi o'n kunligida amalga 4 qaytariqda, 25 m² paykalchada ekilib joylashtirildi. Tajribada andoza nav sifatida "Bahorikor" navi olindi. Tadqiqot davomida andoza navlardan har tomonlama ustun bo'lgan yangi navlarni tanlash va ishlab chiqarishga joriy etish asosiy maqsad qilib olindi.

Tahlil natijalariga ko'ra andoza sifatida olingan moyli zig'irning "Bahorikor navi" ekish-unib chiqishi davri 23 kunni, unib chiqish-archalash davri 16 kunni, unib chiqish- g'unchalash davri 36 kunni, unib chiqish-gullash davri 49 kunni, unib chiqish-to'liq pishish davri o'rtacha 91 kunni tashkil qilib, andozaga nisbatan o'rganilgan 338/1, 2018/8, 1988/3 va 33104 nav namunalarida ekish-unib chiqishi davri 22-25 kunni, unib chiqish-archalash davri 14-16 kunni, unib chiqish-g'unchalash davri 33-36 kunni, unib chiqish-gullash davri 46-50 kunni, unib chiqish-to'liq pishish davri o'rtacha 86-89 kunni tashkil qilib, ushbu o'rganilgan nav navnamunalar andoza "Bahorikor" naviga nisbatan o'suv 2-5 kun ertaroq bo'lgani aniqlandi (2.7-jadval).

2.7-jadval

Raqobat nav sinov maydonida o'rganilgan moyli zig'ir nav va namunalarining o'suv davri davomiyligi, G'allaorol 2019-2021 yy.

T/r	Nav va namunalar nomi	Ekish-unib chiqish, kun	Unib chiqish-archalash, kun	Unib chiqish-g'unchalash, kun	Unib chiqish-gullash, kun	Unib chiqish-to'liq pishish, kun
1	Bahorikor (an)	23	16	36	49	91
2	32159	22	15	34	48	93
3	33220	23	15	35	48	95
4	338/1	22	15	36	50	89
5	47721	22	15	34	48	94
6	2018/8	21	14	33	46	86
7	33242	22	15	34	47	95
8	30114	25	15	35	47	94
9	1988/03	23	15	35	48	86
10	33104	23	16	36	49	88

Raqobat nav sinov maydonida o'rganilgan moyli zig'ir nav namunalarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari. Moyli zig'ir nav namunalarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rganilganda andoza "Bahorikor" navida o'simlik bo'yi 48 sm, bitta o'simlikdagi ko'saklar soni 27 dona, bitta ko'sakdagi urug' soni 7 dona, 1000 dona urug' vazni 4,3 g/ni tashkil qilib, unga nisbatan o'rganilgan 33220, 2018/8 va 1988/03 nav namunalarida o'simlik bo'yi 55-56 sm gacha, bitta o'simlikdagi ko'saklar soni 27-33 dona, bitta ko'sakdagi urug'soni 8 donani va 1000 dona urug' vazni 4,6-4,7 g/gacha bo'lib andoza "Bahorikor" naviga nisbatan o'simlik bo'yi 3-8 sm, bitta o'simlikdagi ko'saklar soni 3-6 dona, bitta ko'sakdagi urug' soni 1 dona va 1000 dona urug' vazni 0,3-0,4 g ga yuqori bo'ldi (2.8-jadval).

2.8-jadval

Raqobat nav sinov maydonida o'rganilgan moyli zig'ir nav va namunalarining mahsuldorlik ko'rsatkislari, G'allaorol 2019-2021 yy.

№	Nav va namunalar nomi	O'simlik bo'yi, sm	Bitta o'simlikdagi ko'saklar soni, dona	Bitta ko'sakdagi urug' soni, dona	1000 ta urug' vazni, g
1	Bahorikor (an)	48	27	7	4,3
2	32159	51	23	7	4,4
3	33220	55	27	8	4,6
4	338/1	46	23	7	4,3
5	47721	48	25	7	4,1
6	2018/8	51	33	8	4,7
7	33242	48	22	7	4,4
8	30114	47	26	8	4,6
9	1988/03	56	30	8	4,6
10	33104	50	26	7	4,5
Bitta o'simlikdagi ko'saklar soni va bitta ko'sakdagi urug' soni o'rtasida korrelyativ bog'liqlik				r=0,72	
Bitta o'simlikdagi ko'saklar soni va 1000 ta urug' vazni o'rtasida korrelyativ bog'liqlik					r=0,63

Shuningdek raqobat nav sinash maydonida bitta o'simlikdagi ko'saklar soni va bitta ko'sakdagi urug' soni va 1000 dona urug' vazni o'rtasida korrelyatsion tahlil ishlari o'rganildi. Bunga ko'ra bitta o'simlikdagi ko'saklar soni va bitta ko'sakdagi urug' soni ($r=0,72$), bitta o'simlikdagi ko'saklar soni 1000 dona urug' vazni o'rtasida ($r=0,63$) ijobiy korrelyatsion bog'liqlik borligi aniqlandi.

Raqobat nav sinash maydonida moyli zig'ir nav namunalarining hosildorlik ko'rsatkichlari. Ma'lumki qishloq xo'jalik ekinlarida hosildorlik asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi hamda hosildorlikni belgilovchi asosiy belgilar ekin turning mahsuldorlik belgilari hisoblanadi. Moyli zig'ir nav namunalari hosildorlik bo'yicha tahlil qilinib o'rganilganda andoza sifatida olingan "Bahorikor" navida hosildorlik o'rtacha 7,9 s/ga ni tashkil qilib andoza navga

nisbatan o'rganilgan 2018/08 va 1988/03 nav namunalarida hosildorlik o'rtacha 9,3-8,5 s/gani tashkil qildi. Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra 2018/08 va 1988/03 nav namunalari andoza "Bahorikor" naviga nisbatan 0,6-1,4 s/ga qo'shimcha hosil olindi (2.9-jadval).

2.9-jadval

Raqobat nav sinash maydonida moyli zig'ir nav namunalarining hosildorlik ko'rsatkichlari, G'allaorol 2019-2021 yy.

№	Nav namunalar nomi	Hosildorlik, s/ga				Andoza nisbatan farqi, s/ga
		2019	2020	2021	O'rtacha	
1	Bahorikor (an)	8,0	7,8	8,1	7,9	-
2	32159	7,5	7,7	7,9	7,7	-0,2
3	33220	7,6	7,4	7,8	7,6	-0,3
4	338/1	6,8	7,4	7,5	7,2	-0,7
5	47721	7,1	7,6	7,3	7,3	-0,6
6	2018/8	9,3	9,2	9,5	9,3	1,4
7	33242	7,7	7,5	7,8	7,6	-0,3
8	30114	6,9	7,6	7,4	7,3	-0,6
9	1988/03	8,3	8,7	8,6	8,5	0,6
10	33104	7,9	7,4	7,8	7,7	-0,2
EKMF05=s/ga		0,44	0,30	0,28		

Raqobat nav sinash maydonida o'rganilgan zig'ir nav namunalarining moy miqdori ko'rsatkichlari. Moyli zig'ir nav namunalari moy chiqish miqdori tahlil qilinganda andoza "Bahorikor" navida uch yillik moy chiqish miqdori o'rtacha 37,0% ni, Andozaga nisbatan o'rganilgan nav namunalarda moy chiqish miqdori 32159 (37,5%), 33220 (36,66%), 338,1 (37,7%), 477,21 (366,2), 2018/8 (38,6%), 33242 (37,2%), 30114 (37,1%), 1988/03 (37,9%) va 33104 (36,5%) ni tashkil qilib, andozaga nisbatan 338/1, 2018/8 va 1988/03 nav namunalarida 0,7-0,9 va 1,6% yuqori moy chiqishi aniqlandi (2.10-jadval).

2.10-Jadval.

**Raqobat nav sinash maydonida o'rganilgan zig'ir nav namunalarining
moy miqdori ko'rsatkichlari, G'allaorol 2019-2021 yy**

№	Nav va namunalar nomi	Urug' tarkibida moy miqdori, %			
		2019 yil	2020 yil	2021 yil	O'rtacha
1	Bahorikor (an)	37,5	36,6	37,02	37,0
2	32159	38,2	37,9	36,5	37,5
3	33220	37,7	36,2	36,01	36,6
4	338/1	37,9	38,8	36,4	37,7
5	47721	36,3	36,6	35,8	36,2
6	2018/8	38,1	38,09	39,73	38,6
7	33242	36,9	38,6	36,2	37,2
8	30114	36,5	37,9	37,03	37,1
9	1988/03	37,8	37,9	37,5	37,9
10	33104	38,5	37,4	33,6	36,5

Ushbu o'rganilgan nav namunalar kelgusida seleksiya jarayonida mahsuldorlik belgilari va moyt chiqish miqdori yuqori yangi navlarni yaratishda seleksiya jarayonida foydalanish uchun ajratib olindi.

2.11-jadval.

MOYLI ZIG'IRNING "LALMIKOR" NAVINI YARATILISHI.

2015 yil	Boshlang'ich manbalar (kolleksiya) ko'chatzorida moyli zig'ir (<i>Linum usitatissimum</i>)ning xorijdan keltirilgan 134 ta namunalarining qimmatli o'suv davri, kasalliklarga chidamliligi kabi qimmatli xo'jalik belgilari o'rganildi. O'rganilgan namunalarning ichidan mahalliy iqlim sharoitiga mos bo'lgan, andoza navga nisbatan yuqori baholangan 97 ta namunasidan yakka tanlash asosida dastlabki manbalar ajratib olindi.
2016 yil	Seleksiya ko'chatzorida kolleksiya ko'chatzorida tanlab olingan eng yaxshi elita namunalar ekilib, mahsuldorlik belgilari bo'yicha baholash va tanlash ishlari olib borildi. Bunga ko'ra 43 ta eng yaxshi tizmalar seleksiya jarayonining keyingi bosqichi uchun tanlab olindi.

2017 yillar		Nazorat ko'chatzorida seleksiya ko'chatzoridan mahsuldorlik belgilari bo'yicha tanlab olingan 19 ta eng yaxshi tizmalar har biri 5 m/kv paykalchadan, 2 qaytariqda ekildi. Andoza "Bahorikor" naviga nisbatan tashqi muhitning noqulay omillariga chidamligi bo'yicha baholanib 9 tizma dastlabki nav sinash ko'chatzorida o'rganish uchun tanlab olindi.
2018 yillar		Dastlabki nav sinash ko'chatzorida moyli zig'irning 9 ta tizmasi 3 qaytariqda 10 m/kv maydonchadan, maxsus CKC-1.6 seleksion traktorda ekildi.
2019-2021 yillar		Raqobatli nav sinash ko'chatzorida moyli zig'irning 9 ta nav va tizmalari har biri 25 m/kv paykalchadan, 4 qaytariqda joylashtirildi va andoza nav sifatida "Bahorikor" navi har o'nta tizmadan so'ng ekildi. Ushbu ko'chatzorda moyli zig'irning tizmalari umumiy qimmatli xo'jalik belgilari bilan bir qatorda hosildorlik belgilari va urug'ining moy chiqimi bo'yicha o'rganildi. Tizmalar ichidan ertapishar, hosildorligi va moy chiqimi yuqori bo'lgan №2018/8 tizmasi tanlab olindi. Ushbu tizma yangi nav sifatida "Lalmikor" nomi bilan Davlat nav sinash markaziga topshirildi.
2021-2023 yillarda		Moyli zig'ir (<i>Linum usitatissimum</i>)ning "Lalmikor" navi Davlat nav sinash markazining hududlar bo'yicha uchastkalarida, turli iqlim-sharoitlarida sinovlar olib borildi. Navning urug'chiligi bo'yicha joriy etish ishlari olib borildi.
2023-yilda		Intelektual mulk agentligi tomonidan moyli zig'ir (<i>Linum usitatissimum</i>)ning "Lalmikor" naviga patent (NAP 519) olindi. Nav respublikamizning lalmikor maydonlari uchun davlat reestriga kiritildi.

SELEKSIYA YUTUG'I PATENTI MOYLI ZIG'IR "LALMIKOR" NAVINING QISQACHA TAVSIFI.

Moyli zig'irning "Lalmikor" navining tavsifi. Nav Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida Sh.X.Oripov (40%), F.B.Amanov (35%), N.X.Yusupov (25%)



tomonidan "Bahorikor" navidan ko'p martali yakka tanlash usuli bilan yaratilib 2023-yilda Qashqadaryo viloyatining lalmikor yerlarida ekish uchun qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestriga kiritilgan. Nav ertapishar qurg'oqchilikka va kasalliklarga chidamli xisoblanadi, o'suv davri 86-90 kun, urug'lari tuxumsimon

o'rtacha kattalikda 1000 dona urug' vazni 4,5-5,0 g ni tashkil etadi.

Zig'irning "Lalmikor" navi zig'irning kudryash tur hiliga mansub, o'simlik bo'yining balandligi lalmi erlarda 50-55 sm, yaxshi shoxlanuvchan. Shoxlarining er sathidan balandligi 8-12 sm. O'simlik gullari to'q ko'k rangda, urug' savatchalari bitta o'simlikda o'rtacha 22-35 tagacha bo'lib, savatchalar ichi parda bilan bo'lingan, urug'lari to'q jigar rangda mayda, urug'i tarkibidagi moy miqdori 38-40%, moy sifati yaxshi. Ekish me'yori gektariga 4,0-4,5 mln. dona unuvchan urug' hisobida, ekish muddati Respublikamizning Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarning lalmikor maydonlarida mart oyining birinchi o'n kunligida ekish tavsiya etiladi.

2.12-jadval.

MOYLI ZIG'IRNING "LALMIKOR" NAVINING BIOMORFOLOGIK BELGILARI

T/r	Belgilar	Ifodalanish darajasi
1.	O'simlik:bo'yi, shu jumladan shoxigacha (gullash oldi)	O'rtacha

2.	Poya: uzunligi (to'liq rivojlanish oldi, o'simlikdagi qisqa shoxlar sonidan tashqari)	Uzun
3.	Gullari: gultoj o'lchami (gullash boshlanishi)	O'rtacha
4.	Kosachabarg: aniqligi (g'unchalash bosqichi)	O'rtacha
5.	Gultojbarg: g'unchalash bosqichida gultoj rangi (gulini ochilish oldi)	Ko'k-binafsha
6.	Gultojbarg: gultoj rangi (to'liq rivojlanish oldi)	Och ko'k
7.	Gultojbarg: bo'ylama burmalanishi	Mavjud emas
8.	Changchi: ip rangi yuksakligi (keyingi bevosita gulini ochilishi)	Binafsha
9.	Changdonlar: rangi (xuddi 8-dek)	Ko'kimtir
10.	Urug'chi: rangi asosi (xuddi 8-dek)	Ko'm-ko'k
11.	Ko'sagi: o'lchami	O'rtacha
12.	Ko'sagi: popukli soxta to'siq	Mavjud emas
